

**TURLI SOHADAGI FANLARNI O'QITISHDA SAMARALI  
METODLARDAN FOYDALANISHNING USLUBLARI**

***NILUFAR ISAYEVA MUHIDDIN QIZI***

*Samarqand Davlat Chet Tillar Payariq xorijiy tillar fakulteti  
talabasi*

***HAYITOVA BARNO AMIROVNA***

*Samarqand davlat veterinariya meditsina chorvachilik va bitexnologiya universiteti hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fizilogiyasi kafedrasи o'qituvchisi*

***Abdurazakov Bobur Sobir o'g'li***

*Samarqand davlat chet tillar insitutining akademik litseyi katta o'qituvchisi*

***Sunnatullayev Safarali Xudoynazar o'g'li***

*Samarqand davlat veterinariya meditsina chorvachilik va bitexnologiya universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada turli sohalarga oid fanlarni o'qitishdagi turli xil zamonaviy metodlardan foydalangan holda tabiiy fanlarni hamda che tillarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanishning usullari bo'yicha so'z yuritilgan.

**Kalit so'zлari:** Turli soha, fanlar, zamonaviy metodlar, tabiiy fanlar, innovatsion metodlar.

Tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichdalari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko'rsatadigan ta'sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiyvazifasini belgilab beradi. Shu bialn birgalikda, o'quvchilar inson faoliyatining tabiatga salbiy va ijobjiy ta'siri, zamon va makon miqyosidagi global ekologik muammolarni va tabiat oldida javobgarlik hissini tushunini , Shuninhdek, sog'lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan kompetant shaxsni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Tabiiy fanlar alohida predmet sifatida o'qitish 1-sinfdan boshlanadi. Tabiiy fanlar ayni vaqtida turli zamonaviy metodikalar orqali boshlang'ich hamda yuqori sinflarga o'rgatilib kelinmoqda. 1-2 sinflarda "Atrofimizdagi olam" 3-4 sinflarga

"Tabiatshunoslik", yuqori sinfdagilarga 4ta alohida fanlar , ya'ni geografiya, biologiya, kimyo, fiziklar o'qitilib kelinmoqda. Ushbu fanlarni o'quvchilar o'zlashtirish maqsadida dars davomida hozirgi zamonning talabiga moslab turli metodikalar orqali tushuntirilmoqda masalan har bir o'quvchilarni qiziqishini ortirish maqsadida turli metodikalardan hamda hoar bir darsga mavzu oid video rollik va turli

qiziqarli materiaillar olib kelib tushuntiradi undan tashqar mavzuni qay darjada o'zlashtirib olganini tekshirish maqsadida metodikalardan foydalanadi. Malasan: 6x6 metodidan, 'Klaster' metodi, "Aqliy hujm" metodikalaridan foylangan holda o'quvchilarni mavzuni qay darjada tushunganini bilib olishimiz mumkin. Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi. «Klaster» metodi. Ushbu metod o'quvchilarga muammolar (mavzular) xususida erkin, ochiq o'yash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. «Klaster» metodi turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Bu metod aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanadi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishslash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. «Klaster» metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmuyi tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi. «Aqliy hujum» metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalardan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan dars jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirishdan iborat. O'quvchilarning tabiat to'g'risidagi ilmiy jihatdan boxabarligi ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirishda tabiat qonunlarini asoslاب berishda biologiya, tabiiyot va geografiya, fizika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlik asoslari o'quv predmetlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limda pedagogik texnologiyalar asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Dars loyixasini tuzishga o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi..

**Shkalalashtirish metod. Ta'rifi:** Bir varaq qog'ozda ikki qutb: "juda ko'p" va "juda kam" tomonlarga ega bo'lgan shkala chiziladi (Shkalaning uzunligi erkin ravishda o'qituvchi tomonidan belgilanishi mumkin). Ishtirokchilarga muhokama

qilinayotgan mavzu bo'yicha shkalada, o'z xabardorligi va bilimdonligiga qarab, bir nuqta chizib (qo'yib) qo'yish taklif etiladi. Mashq yakunida o'qituvchi xulosa chiqaradi.

**Izoh:** Ishtirokchilar mavzu ko'rib chiqilgandan keyin yana bir bor o'zlarining naqadar bilimdonliklarini belgilashlari uchun shkalalashtirish takroran o'tkazilishi mumkin. Mavzuni o'rganish jarayonining boshida belgilab qo'yilgan shkala eng oxirgi belgilangan shkala bilan solishtiriladi, va guruhning masala yoki mavzuni tushunish yoki o'zlashtirishda olg'a harakatlanishi belgilab qo'yiladi.

**Foydalanish doiralari.** Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bilimlari va tajribasini aniqlab olish uchun.

**Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri metodi:** **Ta'rifi**. Har bir ishtirokchi bir varaq qog'ozda o'rganilayotgan yoki o'rganilgan mavzu bo'yicha uchta to'g'ri fikr va bitta noto'g'ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to'planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto'g'ri bo'lgan ekanligini aniqlaydilar.

**Foydalanish doiralari :** Uy ishini tekshirish vaqtida, tabiiy va aniq fanlarda mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

**Afzalliklari** : Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi, o'qituvchiga o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

**Qiyinchiliklari** Materialni o'zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari xavfi bor. O'qituvchiga fikrlar aniqligi va to'g'riliqini kuzatish, mashqni o'tkazish uchun vaqt ni mo'ljallab olish qiyin, chunki o'quvchilarda ko'pincha fikrlarni aniq ifodalash ko'nikmasi mavjud bo'lmaydi.

Xulosa o'rniga shuni aytib o'tish joizki, Tabiiy fanlarni o'raganayotgan o'quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy fikrlashga yordam beradi. Atrof muhitni toza saqlash va tirik organizimlarning foaliyatini o'rganish va tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish kerak.

Hozirgi kunda chet tilini o'rganishga bo'lган Kundan kunga talab ortib bormoqda. Aynilsa hozirda xorij tilini o'rganishda juda katta imkoniyat mavjud. Xorij tilini o'rganish vaqtida turli xil metodikalar orqali o'rganish mumkin. Aynilsa boshlang'ich o'quvchilariga xorij tilini o'rgatish vaqtida birdaniga chet tilini grammatikasini o'rgatmaslik kerak chunki ingliz tiliga qiziqishini so'ndirib quyishi mumkin. Darslik mavzularini qiziqarli metodikalar orqali tushuntirish kerak. Masalan elektron doskalar orqali mavzu yuzasidan video rolliklar hamda turli uyinlar orqali tushuntirish kerak keyinchalik asta sekin grammatikasini kam kam tushuntirib utish ham lozim. Yuqori sinf o'quvchilarga avvalom bor grammatika chuqur o'rgatiligan dan so'ng (Cefr , IELST VA TOEFL) ga tayyorlash kerak. Cefr har bir skilllariga chuqur tayyorlanish kerak. LISTENING oshirish uchun ko'proq listening filmlar va music lar eshitish kerak albatta ingliz tilida . SPEAKING oshirish uchun filmlar ko'rgandandan

keyin orqasidan qaytarish keraak bunda ingliz tilida talafuz hamda gapisirish tezligi oshadi WRITING qismida har bir essay bo'yicha turli xil mavzulaar yuzasidan essay yozish kerak akademik yuzlardan foydalanish kerak. READINGDA ESA har bir partlardan yuzasidan ko'proq shug'llanish kerak . undan tashqari reading ishslash texnikasini bilish kerak. Yuqori sinf o'quvchilariga mavzuni tushuntirib bo'lgangandan so'ng turli metodikalardan foydalanish keraak. Metodika orqali o'quvchi tetiklashadi.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir.

Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;
- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;
- ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish; — CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Ilg`or metodlar chet tilini puxta o`zlashtirishda kompos vazifasini o`taydi. Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida rolli o`yinlardan foydalanishdir. Rolli o`yinlar bu real hayotimizdagи turli situasiyalarni chet tili o'rganish jarayonida qo'llashdir.Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi. Masalan: 1-holatda tasodifan eski dugonalar uchrashib qolishadi. 2-holat Yo`ldan o`tayotib yo`l qoidasiga rioya qilmagan bolani ya`ni o`tish bo`lmagan yo`lni kesib o`tadi. 3-holat.Magazinda oziq ovqat olish uchun xaridor kiradi. 4 Ushbu situasiyalar bo'yicha sahna ko`rinishlari ijro etiladi. Bunday hayotiy rolli o`yinlar dars jarayonida til muhitini yaratadi, talabalarga o`z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi. Rolli o`yinlarda ishtirok etish jarayonida talabalar fikrlashga o`rganadilar,o`z emosional holatlarini chet tilida erkin ifodalay olishga o`rganadilar.Roll o`yinlarga tayorgarlik jarayonida bir-birining leksik,grammatik va talaffuzdagi xatolarini to`g`irlaydilar. Xato qilib va shu xatoni to`g`irlash ham tilni o`rganishga yordam beradi va talabalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatadi. Dars jarayonida rolli o`yinlardan foydalanish bir vaqtning o`zida barcha talabalarni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta`minlaydi. Bundan tashqari rolli o`yinlar talabalarning chet tilini o`rganishga qiziqishini oshiradi va dars jarayoniga jonli,quvnoq muhitni yaratadi. Bu esa chet tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Keyingi metod bu «Keys-stadi» bo`lib inglizcha, («case» — aniq vaziyat, hodisa, «study» — o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Eng qiziqarli metodlardan biri - «Pantomimo» o`yinida 3 guruhga ajratiladi. Har bir

guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so‘zlar ro‘yxat asosida beriladi. Ular biror bir so‘z aytmasdan imo-ishoralar, harakatlar orqali so‘zlarni qolgan guruh a’zolariga tushuntirishlari kerak. “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo’llash uchun hikoyaning boshlanishi o’qib beriladi qanday yakun topishi o’quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; – “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o’quvchilarga topishmoqlar o’rgatish Ingliz tilini o’rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o’zlariga notanish bo’lgan so‘zlarni o’rganadilar va o’ylab topishmoq javobini topadilar; – “Tezkor javob” (Quick answers) o’tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o’quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o’yinlardan foydalanish [3]; – “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo’lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo’ladi; – “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o’quvchilarning og’zaki nutqini o’stirishda yordam beradi; – “Rolli o’yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo’llanilishi mumkin. Hunarga o’rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o’quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; – “Allomalar yig’ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so’zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo’lib tarbiyalanishiga yordam beradi; – “Rasmlar so’zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo’lib, ingliz tilini o’rgatishda, talaba, o’quvchilarning og’zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim; – Kviz kartochkalari (quiz cards) o’quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtida darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtini tejaydi. Ko’rib chiqqnimizdek, har bir innovatsion texnologiya o’ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi hamkorlik, o’quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati ko’zda tutiladi

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to’g’ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o’quvchida bilimga ishtiyoq uyg’otadi. Ta’lim tizimi o’z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo’yar ekan, kelgusida biz bo’lajak o’qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo’llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o’z xissamizni qo’shishimiz mumkin.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. G Sayfullaev, L Alimova, U Ollokova. Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us. Bridge to science: research works, 206-208.

2. ГМ Сайфуллаев, ЛХ Алимова, БОУ Ходиев. Формирование и развитие ихтиофауны водоемов низовьев р. Зарафшан. Вестник науки и образования, 22- 25.
3. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
4. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005-yil
5. Jamol Jalolov chet til 0 'qitish metodikasi,0 'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent - 2012
6. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil 3. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamонавий innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: